

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA INSON
HUQUQLARINI HIMOYA QILISH INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI: INSON
HUQUQLARI BO‘YICHA MILLIY MARKAZ MISOLIDA**

Nurullayeva Madina Fayzulla qizi

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi

Milliy markazining Umumiy bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti Tarix yo‘nalishi 1-kurs magistiri

Orcid id: 0009-0007-6007-6524 Tel.: +99895 493-80-08,

e-mail: shukurovamubina2016@icloud.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar tizimining shakllanish jarayoni tarixiy-huquqiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Konstitutsiyaviy asoslar va xalqaro-huquqiy standartlar ta‘siri, xususan, Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi hamda Parij prinsiplari doirasida milliy institutlar konsepsiyasining mazmuni yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish infratuzilmasining institutsional tarkibi, ularning vakolatlari va funksional farqlari ko‘rsatib berilib, bu jarayonda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining huquqiy maqomi hamda idoralararo muvofiqlashtiruvchi funksiyasi alohida o‘rganiladi. Maqolada Milliy markazning tashkil etilishiga olib kelgan siyosiy-huquqiy omillar, normativ-huquqiy asoslar (1996-yil 31-oktabrdagi Prezident farmoni va 1996-yil 13-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasi qarori) hamda inson huquqlarini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirishdagi o‘rni tarixiy izchillikda asoslanadi. Tadqiqot natijalari mustaqillikning ilk bosqichida inson huquqlarini himoya qilish institutlari shakllanishi davlat qurilishi va jamiyatni demokratlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar

mustaqillik davri; inson huquqlari; milliy institutlar; milliy muassasa; Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz; huquqiy maqom; idoralararo muvofiqlashtirish; Parij prinsiplari; Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi; konstitutsiyaviy asoslar; milliy infratuzilma; demokratlashtirish.

**FORMATION OF HUMAN RIGHTS PROTECTION INSTITUTIONS IN
UZBEKISTAN IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE: THE CASE OF THE
NATIONAL HUMAN RIGHTS CENTER**

Abstract

This article analyzes the process of formation of the system of national institutions for ensuring and protecting human rights in Uzbekistan during the early years of independence, based on a historical and legal approach. The study examines the influence of constitutional foundations and international legal standards, in particular the Vienna Declaration and Programme of Action and the Paris Principles, on the conceptual development of national human rights institutions. The institutional structure of the human rights protection infrastructure in Uzbekistan, as well as differences in their mandates and functional orientations, are highlighted. Special attention is given to the legal status and interagency coordinating function of the National Human Rights Center of the Republic of Uzbekistan. The article substantiates, in historical sequence, the political and legal factors that led to the establishment of the National Center, its normative legal foundations (the Presidential Decree of October 31, 1996, and the Resolution of the Cabinet of Ministers of November 13, 1996), and its role in improving the mechanism for ensuring human rights. The research findings demonstrate that the formation of human rights protection institutions during the initial stage of independence constituted an essential component of state-building and the democratization of society.

Keywords

period of independence; human rights; national institutions; national human rights institution; National Human Rights Center; legal status; interagency coordination; Paris Principles; Vienna Declaration and Programme of Action; constitutional foundations; national infrastructure; democratization.

**ФОРМИРОВАНИЕ ИНСТИТУТОВ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В
УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: НА ПРИМЕРЕ
НАЦИОНАЛЬНОГО ЦЕНТРА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА**

Аннотация

В статье на основе историко-правового подхода анализируется процесс формирования системы национальных институтов по обеспечению и защите прав человека в Узбекистане в первые годы независимости. В исследовании раскрывается влияние конституционных основ и международно-правовых стандартов, в частности Венской декларации и Программы действий, а также Парижских принципов, на становление концепции национальных институтов по правам человека. Показана институциональная структура инфраструктуры защиты прав человека в Узбекистане, а также различия в полномочиях и функциональной направленности соответствующих институтов. Особое внимание уделено правовому статусу и межведомственной координирующей функции Национального центра Республики

Узбекистан по правам человека. В статье в исторической последовательности обоснованы политико-правовые факторы, обусловившие создание Национального центра, его нормативно-правовые основы (Указ Президента от 31 октября 1996 года и постановление Кабинета Министров от 13 ноября 1996 года), а также его роль в совершенствовании механизма обеспечения прав человека. Результаты исследования свидетельствуют о том, что формирование институтов защиты прав человека на начальном этапе независимости являлось важной составной частью процессов государственного строительства и демократизации общества.

Ключевые слова

период независимости; права человека; национальные институты; национальное учреждение по правам человека; Национальный центр по правам человека; правовой статус; межведомственная координация; Парижские принципы; Венская декларация и Программа действий; конституционные основы; национальная инфраструктура; демократизация.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllana boshladi. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat xalqining inson huquqlariga sodiqligini e‘lon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmati hamda boshqa asosiy huquqlarini eng oliy qadriyat darajasida belgilab berdi. Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq milliy qonunchilikni rivojlantirish va uni inson huquqlari sohasidagi xalqaro andozalar bilan muvofiqlashtirish, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarni tashkil etish va takomillashtirish, shuningdek, nodavlat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalarining mazkur jarayonga faol qo‘shilishi O‘zbekistonning huquqiy-demokratik davlat sari bosqichma-bosqich harakatlanayotganini ko‘rsatdi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda xalqaro huquqning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan inson huquqlari hamda erkinliklariga alohida urg‘u berilgani bu boradagi dastlabki institutsional-huquqiy qadamlardan biri bo‘ldi⁵⁰. Keyingi davrda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlash, rag‘batlantirish hamda himoya qilish yo‘nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, avvalo, shakllanayotgan mexanizmni yanada takomillashtirish va uni xalqaro huquq normalari hamda tamoyillariga moslashtirishga qaratildi. Shuni ta‘kidlash joizki, inson huquqlarining ta‘minlanganlik darajasi davlatdagi demokratiya mezonlaridan biri sifatida qaraladi; inson huquqlariga rioya etish esa muayyan mamlakatda demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Inson huquqlariga rioya etilgan jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot uchun qulay

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2009. — 22, 43-moddalar.

muhit, jumladan, sog'lom raqobat va ijtimoiy mas'uliyatli munosabatlar mustahkamlanadi.

Inson huquqlari masalasi ijtimoiy munosabatlarning tarixiy shakllanishi jarayonida turli bosqichlarda o'ziga xos mazmun kasb etib kelgan. Professor A.X. Saidovning qayd etishicha, “inson huquqlari — butun insoniyat intilishlari, orzu-umidlarini o'zida jamlagan keng qamrovli tushunchadir”, inson huquqlariga oid qonunchilik esa inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari haqidagi qonunlar majmuasidan iborat bo'lib, unga xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi⁵¹. Professor U. Tadjixonov esa inson huquqlarini umuminsoniy kategoriya sifatida talqin qilib, u shaxsning muayyan ijtimoiy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalashini, bu borada mazkur qadriyatlarning davlat tomonidan tan olinishi har doim ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmasligini ta'kidlaydi⁵².

Mustaqillik yillarida parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarda inson huquqlariga oid normalarning umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy standartlar sifatida mustahkamlab borilishi aynan shu huquqiy evolyutsiyaning muhim ko'rsatkichidir. Xususan, qonunchilikda inson huquqlarining universalligi, tenglik tamoyiliga asoslanganligi, inson huquqlarining oliy qadriyat ekani hamda davlatning ularni hurmat qilish, ularga rioya etish va mustahkamlash majburiyati kabi qoidalar izchil mustahkamlanmoqda. Shuningdek, inson huquqlari davlat hokimiyati ustidan nazoratni amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinib, davlat faoliyatida inson huquqlari bilan belgilangan chegaralardan chetga chiqmasligi lozimligi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, insonning o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini buzmasligi kerakligi, shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning o'zaro teng ahamiyatga egaligi ham konseptual norma sifatida qaror topmoqda.

Inson huquqlarini cheklash masalasi ham xalqaro standartlarga uyg'un tarzda, faqat qonun asosida va faqat muayyan zaruriyat — davlat va jamiyat xavfsizligini, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, aholi sog'ligi va axloqini, shuningdek, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish talab etilgan hollarda qo'llanishi mumkinligi tamoyiliga bog'lanadi. Favqulodda yoki harbiy holat sharoitida vaqtinchalik cheklovlarining kiritilishi ularni taqozo qilgan vaziyatning xavflilik darajasiga monand bo'lishi va vaziyat o'zgargach, huquqlarga rioya etish tartibi ham mos ravishda qayta tiklanishi lozimligi qayd etiladi.

Inson huquqlari himoyasida parlamentning qonunchilik faoliyati alohida o'rin egallaydi. Demokratik mamlakatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat inson huquqlari bilan bog'liq mezonlar bo'yicha mas'ul subyektlar sifatida namoyon bo'ladi: parlament

⁵¹ Ахмедов Ғ., Саттаров А. Ўзбекистон: Инсон ҳуқуқлари ва қонунлари / масъул муҳаррир А.Х. Саидов. — Тошкент: Адолат, 1999. — Б. 12.

⁵² Таджихонов У. Закон. Человек. Государство. — Т.: Академия МВД, 1997. — С. 127–128

qabul qilayotgan qonunlarning konstitutsiyaviy hamda xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanishi zarur. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada xalqaro huquq ustuvorligini e'lon qilishi, turli toifadagi fuqarolar (ayollar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqalar) huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro konvensiyalarga qo'shilishi, shuningdek, mamlakat hududida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini zimmasiga olishi mustaqillikning dastlabki bosqichida institutlar tizimini shakllantirish uchun muhim siyosiy-huquqiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, davlat bu borada mas'uldir. Xususan, davlat inson huquqlari sohasida xalqaro shartnomani imzolab, uning normalarini milliy qonunchilikka kiritish yoki hujjatda belgilangan talablarni boshqa yo'l bilan amalga oshirish majburiyatini oladi. Shu sababli, inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan standart va normalar, qoida tariqasida, demokratik davlatlarning ichki qonunchiligida o'z ifodasini topadi. Bu jarayonda inson huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar bilan bir qatorda, ushbu huquqlarni amalda ro'yobga chiqarish samaradorligini ta'minlovchi institutlarga bo'lgan ehtiyoj ham doimo ortib borishi tabiiy⁵³.

Xalqaro huquq doirasida ham inson huquqlarini ta'minlashda milliy institutlar (milliy muassasalar) masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 1968-yilda BMT shafeligida o'tkazilgan inson huquqlari bo'yicha xalqaro konferensiya jarayonlarida inson huquqlarini universal qadriyat sifatida e'tirof etish hamda davlatlarning bu boradagi majburiyatlarini kuchaytirish g'oyasi ilgari surilgan. Keyingi bosqichda esa 1993-yilda Inson huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasi doirasida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturida davlatlarga o'z ehtiyojlari va milliy sharoitidan kelib chiqqan holda inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga xizmat qiluvchi institutlar tizimini shakllantirish masalasida tegishli yondashuvlar belgilab berildi⁵⁴. Mazkur xalqaro-huquqiy yondashuv mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlarni, xususan, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazni tashkil etishning tarixiy-huquqiy asoslari shakllanishiga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi.

Butunjahon konferensiyasi qabul qilgan ushbu hujjatda milliy muassasalarning inson huquqlarini rag'batlantirish va himoyalash masalalaridagi amaliy roli yana bir bor tasdiqlandi. Xususan, milliy muassasalar vakolatli organlar huzurida maslahat tuzilmalari sifatida faoliyat yuritishi, inson huquqlari buzilishlariga barham berishga ko'maklashishi, inson huquqlari to'g'risida axborot tarqatishi hamda bu yo'nalishda ta'lim berishdagi o'rni alohida qayd etildi. Shuningdek, hujjat "Milliy muassasalar

⁵³ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam / o'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. — Toshkent: Adolat, 2004. — B. 30, 59.

⁵⁴ Вена декларацияси ва инсон ҳуқуқлари бўйича Ҳаракат дастурининг 10 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция материаллари. — Тошкент, 2004. — Б. 8.

maqomiga tegishli prinsiplar”ni (Parij prinsiplari) inobatga olgan holda milliy muassasalarni barpo etish va mustahkamlashni ragʻbatlantirdi hamda har bir davlat milliy darajada oʻzining aniq ehtiyojlariga eng koʻp darajada mos tuzilmalarni tanlash huquqiga ega ekanini eʼtirof etdi. Mazkur holat mustaqillikning dastlabki yillarida Oʻzbekistonda inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha milliy institutlarni, xususan, Inson huquqlari boʻyicha Milliy markazni tashkil etishning tarixiy-huquqiy asoslari shakllanishiga ham

Butunjahon konferensiyasi qabul qilgan mazkur hujjatda milliy muassasalarning inson huquqlarini ragʻbatlantirish va himoyalash masalalaridagi amaliy roli yana bir bor tasdiqlandi. Xususan, milliy muassasalar vakolatli organlar huzurida maslahat tuzilmalari sifatida faoliyat yuritishi, inson huquqlari buzilishlariga barham berishga koʻmaklashishi, inson huquqlari toʻgʻrisida axborot tarqatishi hamda bu yoʻnalishda taʼlim berishdagi oʻrni alohida qayd etildi. Shuningdek, hujjat “Milliy muassasalar maqomiga tegishli prinsiplar”ni (Parij prinsiplari) inobatga olgan holda milliy muassasalarni barpo etish va mustahkamlashni ragʻbatlantirdi hamda har bir davlat milliy darajada oʻzining aniq ehtiyojlariga eng koʻp darajada mos tuzilmalarni tanlash huquqiga ega ekanini eʼtirof etdi⁵⁵.

“Milliy tashkilot” deganda hukumat tomonidan Konstitutsiya yoki qonunga muvofiq tashkil etilgan, inson huquqlarini himoya qilish va ragʻbatlantirish kabi funksiyalari aniq belgilangan organ tushuniladi. Parij prinsiplari mazmuniga koʻra, inson huquqlari bilan shugʻullanuvchi milliy tashkilotlarning asosiy vazifasi inson huquqlarini himoya qilish va ragʻbatlantirishdan iborat.

Professor Liiza Rayf milliy institutlarning oʻrnini quyidagicha izohlaydi: inson huquqlari boʻyicha milliy institutlarni inson huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishning yagona hamda markaziy vositasi sifatida, yoki davlat maʼmuriyatini “toʻgʻri boshqarish usuli” sifatida talqin etish toʻgʻri emas. Aksincha, ularga mamlakatni boshqarish tizimini takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilishni rivojlantirish uchun muhim boʻlgan demokratiya institutlari majmuasi sifatida yondashish lozim. Muallif fikriga koʻra, dastlabki institutlar — ombudsmanlar va inson huquqlari boʻyicha komissiyalar — mustaqil va alohida mexanizm sifatida emas, balki qonunchilik organlari, sudlar hamda maʼmuriy tribunal faoliyatini toʻldiruvchi institutlar sifatida shakllangan⁵⁶.

Samarali milliy institutlarning muhim belgilaridan biri — ularning hukumat, partiya va boshqa subyektlardan nisbatan mustaqil ravishda harakat qila olishidir. Biroq milliy institutning mustaqilligi uni davlat bilan umuman aloqasiz degan maʼnoni anglatmaydi: institutning davlat bilan munosabati, vakolat doirasi va faoliyat yuritish

⁵⁵ Principles relating to the Status of National Institutions (The Paris Principles). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/principles-relating-status-national-institutions-paris>

⁵⁶ Венская декларация и программа действий: Сборник документов. — М., 2004. — С. 88

chegaralari uning qonunchilikdagi mandati orqali belgilab qo'yiladi. Aynan shu huquqiy mandat milliy institutlarni nodavlat muassasalardan farqlovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Inson huquqlari himoyasi bilan shug'ullanuvchi milliy institutlarga ehtiyoj, odatda, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

— ayrim mamlakatlarda hukumat tomonidan fuqarolar huquqlari buzilishi kuzatilishi va bunday zo'ravonlik hamda adolatsizliklarga qarshi institutsional mexanizmlarni yaratish zarurati;

— buzilgan huquqlarni tiklash maqsadida davlat idoralariga murojaat qilishda turli to'siqlarga duch kelinishi, shu bois milliy institutlarning fuqarolarga beg'araz ko'mak ko'rsatishi;

— milliy institutlar vakolat va imkoniyatlarining kengligi, ularda malakali mutaxassislar (huquqshunos, siyosatshunos va boshqalar) ishtiroki orqali inson huquqlarini milliy qonunchilik bilan bir qatorda xalqaro huquq normalari, deklaratsiyalar va konvensiyalarga tayangan holda himoya qilish imkoniyati;

— milliy institutlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishi, inson huquqlarining amaldagi holati yuzasidan axborotlar, xabarlar va ma'ruzalar tayyorlashi yoki bunday ishlarga ko'maklashishi;

— aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishdagi tarbiyaviy-ma'rifiy roli.

Xalqaro huquq talablari, BMT hamda YeXHT tavsiyalariga muvofiq, O'zbekistonda nafaqat inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va kafolatlari, balki ushbu sohada tegishli milliy infratuzilma ham bosqichma-bosqich shakllandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida bu yo'nalishdagi institutsional qurilish jarayonini kuchaytirgan omillardan biri sifatida Birinchi Prezident Islom Karimovning 1996-yil 26-avgustda Oliy Majlisning VI sessiyasi ochilishida so'zlagan nutqini qayd etish mumkin⁵⁷. Mazkur nutqda inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, bu borada muntazam monitoring va nazorat olib boradigan muassasalarni tashkil etish zarurati alohida ta'kidlandi. Xususan, "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, jamoatchilik fikrini o'rganish markazi va boshqalar" kabi institutlarni yaratish hamda mavjudlarini rivojlantirish inson huquqlariga rioya etishni boshqarish va nazorat qilish uchun yangi, samarali mexanizmlarni vujudga keltirish bilan bog'liq ekani qayd etildi⁵⁸.

Shu bilan birga, shaxslarning huquq va erkinliklari kafolatlarini faqat Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yishning o'zi yetarli emasligi ham

⁵⁷ Каримов И.А. Ҳозирги боскичда демократия ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари // Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби. Т. 5. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997. — Б. 119

⁵⁸ Бакаева Ф.Х. Олий Мажлисининг инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонунига шарҳ. — Тошкент: Адолат, 2001. — Б. 19

mustaqillikning dastlabki bosqichidayoq anglangan. Chunki mansabdor shaxslar, davlat organlari va boshqa muassasalarning qonunga zid xatti-harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishi mumkin. Ana shunday holatlarga imkon qadar barham berish, huquq buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida inson huquqlarining amalda ro'yobga chiqishini nazorat qiluvchi institutlarni tashkil etish zarurati yuzaga keladi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish borasida davlat apparatiga ko'maklashish, qonunchilikka rioya etilishining parlament nazoratini kuchaytirish hamda milliy huquq normalarining xalqaro me'yorlarga mosligini ta'minlash maqsadida bir qator institutlar shakllantirildi. Jumladan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti; milliy huquq normalarining inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarga mosligini tahlil qilishga yo'naltirilgan (keyinchalik Prezident huzurida qayta tashkil etilgan) amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti; inson huquqlari masalalarini tizimli tahlil qiluvchi Milliy markaz; shuningdek, sotsiologik tadqiqotlar orqali fuqarolar huquqlarining ta'minlanishini o'rganadigan Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tashkil etildi. Mazkur institutlar nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda O'zbekistonda inson huquqlari muammolarini hal etishga muayyan hissa qo'shib kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki oylaridanoq O'zbekiston Respublikasi parlament tuzilmalarida inson huquqlariga oid masalalarni ko'rib chiqishga yo'naltirilgan institutsional yo'nalish shakllana boshladi. Ayrim adabiyotlarda 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi doirasida inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi tuzilma(lar) tashkil etilgani qayd etiladi. Bu holat, umuman olganda, milliy institutsional tizim shakllanishining ilk tarixiy belgilaridan biri sifatida baholanadi. Keyingi yillarda mamlakatda inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoyalash masalalari bilan shug'ullanuvchi bir necha tuzilmalar vujudga kelib, ularning ayrimlari qonun chiqaruvchi hokimiyat tizimida, ayrimlari ijroiya hokimiyat doirasida, yana boshqalari esa fuqarolik jamiyati institutlari sifatida faoliyat yuritishi bilan farqlanadi.

Olimlar O'zbekistonda inson huquqlariga amal qilish va ularni himoyalashni ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi bir qator institutlar yaratilganini alohida ta'kidlaydilar. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning vujudga kelishi tarixiga oid A.X. Saidovning mulohazalariga ko'ra, bu jarayon O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirishning muhim bosqichini ifodalaydi: qisqa muddat ichida mamlakatning siyosiy-huquqiy qiyofasini sezilarli darajada yangilagan, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy demokratik institutlari shakllantirilgan.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlovchi institutlar tizimi doirasida ularning vakolati, huquqiy maqomi va funksional yo'nalishlarida muayyan farqlar mavjud.

Xususan, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish doirasida tashkil etilgan yangi institutlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi Amaldagi qonunchilik monitoringi institutini ko'rsatish mumkin. Mazkur institut O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 1996-yil 3-dekabrda 322-I-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi Amaldagi qonunchilik monitoringi institutini yaratish haqida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Institutning huquqiy maqomi, tashkil etish prinsiplari hamda faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari Oliy Majlis Kengashi qarorlari va institut Nizomida mustahkamlangan.

Nizomga ko'ra, institutning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan: amaldagi qonunlarni va ularning inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarga mosligini o'rganish; amaldagi qonunlarni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy normalarga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish va umumlashtirish; xalqaro inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash; chet el ekspertlari va institutlarini jalb qilgan holda ayrim qonun loyihalarining ekspertizasini o'tkazish; qonunchilik jarayoni bo'yicha taklif va dasturlar ishlab chiqish.

1999-yilda institut qoshida Ilmiy-maslahat kengashi tashkil etildi. Kengash jamoatchilik asosida faoliyat yuritib, uning a'zolari nodavlat notijorat tashkilotlari olimlari va amaliyotchilaridan iborat tarzda shakllantirildi. Mazkur tuzilma institutga qonunlar monitoringini amalga oshirish hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ko'mak berib bordi.

Parlament tizimini isloh qilish, O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish, qonunlar ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish, qonun ijodkorligi ishining sifatini oshirish hamda barcha bosqichlarda ekspert baholash rolini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-apreldagi PF-3590-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti sifatida qayta tashkil etildi.

Qayta tashkil etilgan institut Nizomiga ko'ra, u ilmiy-tadqiqot va ekspert muassasasi hisoblanadi. Institut tarkibiy jihatdan guruhlar va bo'limlarda ish olib boruvchi 30 shtat birligiga ega bo'lib, uning tuzilmasida axborot-tahlil guruhi; davlat va jamoat qurilishi sohasidagi qonun hujjatlari monitoringi guruhi; sud-huquq sohasi hamda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish doirasidagi qonun hujjatlari monitoringi guruhi; xalqaro-huquqiy tadqiqot guruhi; mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qonun hujjatlari monitoringi guruhi; umumiy bo'lim kabi bo'linmalar mavjud.

Institut yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi. Institut direktori va uning o'rinbosari Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Institut faoliyatiga

umumiy rahbarlik Prezidentning mamlakatni isloh qilish va yangilashning huquqiy bazasini takomillashtirish masalalari bo'yicha Davlat maslahatchisi xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining o'ziga xos jihati shundaki, u bevosita qonun bilan emas, balki avval parlament qarori, keyinchalik Prezident farmoni bilan ta'sis etilgan. Bundan tashqari, institutning asosiy vazifasi fuqarolarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqish emas, balki normativ-huquqiy bazani tahlil qilish va ekspertiza qilish orqali inson huquqlari standartlariga muvofiqlashtirishga ko'maklashishdan iborat bo'lgan.

Milliy institutlar tizimining shakllanishida muhim burilish nuqtalaridan biri 1996-yil 31-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Milliy markaz davlat organi sifatida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga muvofiq ravishda olib boradi. Markazning funksiyalari hamda vazifalari Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-noyabrdagi 399-son "O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarorida tasdiqlangan va "O'zbekiston Respublikasining Milliy markazi haqida"gi Nizomda aniq belgilab berilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan milliy institutlar tizimining shakllanishi davlat qurilishi va jamiyatni demokratlashtirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'ldi. Ushbu jarayon Konstitutsiyaviy asoslar, inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy majburiyatlar hamda umume'tirof etilgan demokratik tamoyillarga tayangan holda izchil ravishda amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish borasida faqat normativ-huquqiy bazani shakllantirish bilan cheklanib qolmadi, balki mazkur huquqlarning amalda ro'yobga chiqishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni ham yaratishga intildi. Bu borada Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining tashkil etilishi milliy institutlar tizimi rivojida muhim bosqich bo'lib, u inson huquqlari masalalarini tizimli tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda idoralararo hamkorlikni muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi markaziy bo'g'in sifatida shakllandi.

Tahlil qilingan tarixiy-huquqiy materiallar shuni tasdiqlaydiki, Milliy markazning faoliyati Parij prinsiplari talablariga mos holda inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u ombudsman instituti, qonunchilik monitoringi mexanizmlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqada faoliyat yurituvchi

muhim davlat organi sifatida namoyon bo'lgan. Shu jihatdan, Milliy markaz nafaqat maslahat va tahliliy funksiyalarni bajaruvchi tuzilma, balki inson huquqlari siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda muhim institutsional tayanch sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, mustaqillikning ilk bosqichida inson huquqlarini himoya qilish institutlarining shakllanishi O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi muhim tarixiy bosqichni ifodalaydi. Mazkur tajriba inson huquqlarini ta'minlash sohasida institutsional yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib, keyingi islohotlar uchun mustahkam huquqiy va tashkiliy poydevor yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2009.
2. Ахмедов Ғ., Саттаров А. Ўзбекистон: Инсон ҳуқуқлари ва қонунлари / масъул муҳаррир А.Х. Саидов. — Тошкент: Адолат, 1999. — Б. 12.
3. Таджихонов У. Закон. Человек. Государство. — Т.: Академия МВД, 1997. — С. 127–128
4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam / o'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. — Toshkent: Adolat, 2004. — B. 30, 59.
5. Вена декларацияси ва инсон ҳуқуқлари бўйича Ҳаракат дастурининг 10 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция материаллари. — Тошкент, 2004. — Б. 8.
6. Principles relating to the Status of National Institutions (The Paris Principles). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/principles-relating-status-national-institutions-paris>
7. Венская декларация и программа действий: Сборник документов. — М., 2004. — С. 88
8. Каримов И.А. Ҳозирги босқичда демократия ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари // Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби. Т. 5. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997. — Б. 119
9. Бакаева Ф.Х. Олий Мажлиснинг инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонунига шарҳ. — Тошкент: Адолат, 2001. — Б. 19